

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/05.06.2020.K/B.91.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**BEKPOLATOVA BAXTIGUL MADIREYMOVNA**

**LAGOXILIN VA LAGOXIRZINNING BIOLOGIK FAOL HOSILALARI  
SINTEZI**

**02.00.10 – Bioorganik kimyo**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Guliston - 2025**

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по химическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on chemical sciences**

<b>Bekpolatova Baxtigul Madireymovna</b> Lagoxilin va lagoxirzinning biologik faol hosilalari sintezi.....	3
<b>Бекполатова Бахтыгул Мадиреймовна</b> Синтез биологически активных производных лагохилина и лагохирзина.....	23
<b>Bekpolatova Baxtigul Madireymovna</b> Synthesis of biologically active derivatives of lagohilin and lagohirzine .....	45
<b>E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati</b> Список опубликованных работ List of published works.....	49

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/05.06.2020.K/B.91.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**BEKPOLATOVA BAXTIGUL MADIREYMOVNA**

**LAGOXILIN VA LAGOXIRZINNING BIOLOGIK FAOL HOSILALARI  
SINTEZI**

**02.00.10 – Bioorganik kimyo**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Guliston - 2025**

**Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/K465 raqam bilan ro'yhatga olingan.**

Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.siyes.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim tarmog'ida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Matchanov Alimjon Davlatboyevich**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Abdulladjanova Nodira Gulomjonovna**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Mamadaliyeva Nilufar Zokirjonovna**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent kimyo-texnologiya instituti**

Dissertatsiya himoyasi Guliston davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/05.06.2020.K/B.91.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140100, Guliston shahri, 4-mavze, universitet kampusi. Tel: (+99867-225-24-90), e-mail: [gdu\\_info@edu.uz](mailto:gdu_info@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Guliston davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ \_\_\_\_\_ raqami bilan ro'yhatga olingan).. (Manzil: 120100, Guliston shahri, 4-mavze, universitet kampusi. Tel: (+99867-225-24-90), e-mail: [sies\\_info@edu.uz](mailto:sies_info@edu.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi)

**H.H.Qo'shiyev**

Fan doktori ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

**T.A.Djurayev**

Fan doktori ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.f.d., dots.

**N.R.Xashimova**

Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar  
raisi b.f.d., k.i.x.

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda o‘simlik xomashyosi asosida yaratilgan mahsulotlardan foydalanishga alohida e‘tibor berilmoqda. Ayniqsa, tibbiyotda shifobaxsh o‘simliklardan ajratib olingan tabiiy birikmalar asosida yaratilgan vositalardan foydalanish dolzarb masalalardan biridir. Shunga ko‘ra, o‘simliklarning kimyoviy tarkibini tadqiq qilish asosida biologik faol moddalarni ajratib olish va ularning xususiyatlariga ko‘ra kimyoviy modifikatsiya qilish, olingan birikmalarning kimyoviy tuzilishini aniqlash, spetsifik faolliklarini o‘rganish hamda ularni sanoat miqyosida ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Jahonda dorivor o‘simliklarning kimyoviy tarkibini o‘rganish, o‘simliklardan faol ta’sir qiluvchi birikmalarini (terpenlar, terpenoidlar, polifenollar, alkaloidlar, flavonoidlar, kumarinlar, glikozidlar va boshqa moddalar) alohida erkin holda ajratib olish va fizik-kimyoviy va spektral usullar asosida kimyoviy tuzilishlarini tahlil qilish, ular asosida yuqori biologik faollikka ega dori vositalari substansiyalarini olish tadqiqotlari olib borilgan. Aynan ushbu yo‘nalishda ko‘pgina nufuzli tadqiqot markazlarida biologik faol moddalar manbalarini aniqlash, ulardan kerakli birikmalarni ajratib olish va modifikatsiya qilish, ularning tuzilishi hamda biologik faolligini zamonaviy usullar bilan tahlil qilishga alohida e‘tibor berilmoqda. Shunga ko‘ra, olib boriladigan tadqiqotlar natijasida samarali, xavfsiz va innovatsion preparatlar yaratilishi kutilmoqda.

Mamlakatimizda bugungi kunda olib borilayotgan tadqiqotlar asosida tabiiy manbalar tarkibini tadqiq etish asosida biologik faol moddalarni aniqlash va ular asosida ekologik xavfsiz mahsulotlar yaratish bo‘yicha nanotexnologik yondashuvlarga asoslangan innovatsion ishlanmalar amaliyotga tadbiiq etilib muayyan ilmiy natijalarga erishilmoqda. Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotini yanada rivojlantirish bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasida<sup>1</sup> «ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish» bo‘yicha muhim vazifalar belgilangan. Shunga ko‘ra, mamlakatimizda tabiiy birikmalar asosida substansiyalar olish va ular asosida muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lgan birikmalar sintez qilish hamdahayotiy xavfsiz dorilar yaratish ilmiy va amaliy jihatdan alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 apreldagi «Respublikamizda 2019-2021 yillarda farmatsevtika sohasini jadal rivojlantirishning keyingi chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5707-son<sup>2</sup>, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmonlari, 2020 yil 12 avgustdagi “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta‘lim sifatini va ilm-

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28yanvardagi PF-60-son “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 apreldagi PF-5707-son «Respublikamizda 2019-2021 yillarda farmatsevtika sohasini jadal rivojlantirishning keyingi chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni

fan natijadorligini oshirish chora tadbirlari to'g'risida"<sup>1</sup> PQ-4805-son qarori va boshqa hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining VI. «Tibbiyot va farmakologiya» va VII «Kimyo, kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalar» kabi ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

#### **Muammoning o'rganilganlik darajasi.**

O'simlikning asosiy ta'sir etuvchi moddasi lagoxilin diterpenoidi va uning atsetil hosilalari hisoblanadi. Hozirgi vaqtda lagoxilin va uning hosilalarini o'simlikdan ajratib olish va sintez qilish, tuzilishi, farmako-toksikologik xususiyatlarini o'rganish va ularni sanoat miqyosida ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish bo'yicha jahon va respublikamizda ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, I.E.Akopov, P.F.Vlad, M.I.Ikramov, S.A.Yaparova, D.Popa, G.V.Lazurevskiy, M.M.Abramov, O.S.Chijov O.S.Sodiqov, M.Xatamov, X.A.Aslanov, I.I.Ibragimov, T.R.Abduraxmanov, S.A.Auelbekov, U.N.Zaynutdinov, D.N.Dalimov, Z.I.Mavlyankulova, M.P.Po'latova, A.D.Matchanov, S.A.Maulyanov kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

M.I.Ikramov va M.I.Chijlar tomonidan *L.inebrians* o'simligining vegetativ davriga qarab efir moylarining hosil bo'lish dinamikasi o'rganilgan. R.L.Xazanovich tomonidan esa *L. inebrians*ning gullash va urug' hosil qilish davrida 0,217% efir moyi saqlashi aniqlangan. I.F.Proskurina va L.M.Utkinlar *L. inebrians* o'simligi tarkibidan staxidrin alkaloidini ajratib olishgan. O'zbekiston Milliy universiteti professori U.N. Zaynutdinov tomonidan *Lagochilus* turi o'simliklari tarkibidan 30 dan ortiq tabiiy birikmalar ajratib olingan, professor D.N.Dalimov va A.D.Matchanovlar tomonidan glitsirizin kislotasi hamda uning tuzlari bilan lagoxilinning suvda eruvchan supramolekulyar kompleks birikmalari olingan va ularning suvli eritmalaridagi mitsellyar tuzilishi, turg'unligi va termodinamik xususiyatlari kompleks hosil qiluvchi komponentlar nisbatiga va ularning kimyoviy tuzilishiga bog'liqligi aniqlangan. Lekin olingan birikmalarning o'ziga xos kimyoviy tuzilishlari boshlang'ich moddalarning kimyoviy tuzilishlarini o'rganishda rentgen tuzilishi tahlili usullaridan nisbatan kam foydalanilgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi O'zbekiston Milliy universiteti, Qoraqalpoq davlat universiteti va O'zR FA Bioorganik kimyo institutining ilmiy-tadqiqot ishlari FA-I11-TO11 "Glilagin gemostatik preparatini ishlab chiqarish texnologiyasini o'zlashtirish va lagoxilinni olish texnik sharoitlarini ishlab chiqish" (2015-2016) va "Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida o'suvchi o'simliklardan biologik faol birikmalarni ajratib

---

<sup>1</sup> 2020 yil 12 avgustdagi "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora tadbirlari to'g'risida"<sup>1</sup> PQ-4805 qarori

olish, kimyoviy tarkibi va fiziologik xususiyatlarini o'rganish" (2015-2020) mavzusida olib borilgan tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** lagoxilin diterpenoidining yangi hosilalarini sintez qilish va kristallarini olish usullarini ishlab chiqish, supramolekulyar komplekslarini olish va ularning kimyoviy tuzilishlari hamda biologik faolligini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

*Lagochilus inebrians Bunge* o'simligidan lagoxilin diterpenoidini oldindan ma'lum usulga asoslanib ajratib olish, qayta kristallab tozalash va fizik – kimyoviy kattaliklarini adabiyot ma'lumotlari bilan taqqoslash;

Lagoxilin asosida uning degidratlanish mahsuloti 18-norgidroksimetilen-3-O-3'-3-O-18'-dilagoxirzinni sintez qilish, tozalash, monokristalini olish;

Lagoxilin 15,16,18-triatsetil hosilasini sintez qilish, tozalash, fizik-kimyoviy xususiyatlarini o'rganish hamda monokristalini olish usulini ishlab chiqish;

Lagoxirzinni sintez qilish, uning monokristalini olish hamda uning asosida GK va GKMAT bilan turli xil molyar nisbatlardagi supramolekulyar komplekslarini olish, fizik-kimyoviy va spektral xususiyatlarini aniqlash;

Lagoxilin asosida lagoxirzidin, 15,16,18-triatsetillagoxilin, lagoxilintetraformiat, di-(O,O'-siklogeksiliden)lagoxilinlarni sintez qilish, tozalash, fizik-kimyoviy xususiyatlarini aniqlash va ularning monokristallarini olish;

sintez qilingan va monokristallari olingan lagoxilin hosilalarining kimyoviy tuzilishlarini RTT, YaMR spektroskopiyasi va mass-spektrometriya usullari asosida tahlil qilish;

olingan birikmalarning spetsifik gemostatik faolliklarini o'rganish va kimyoviy tuzilishi bilan biologik faolligi orasidagi bog'liqlik qonuniyatlarini tahlil qilish.

**Tadqiqotning ob'yekti** sifatida Bozulbang (*Lagochilus inebrians Bunge*), o'simligi, lagoxilin diterpenoidi, supramolekulyar komplekslar olingan.

**Tadqiqotning predmeti** lagoxilin diterpenoidi hosilalari sintezi, monokristallari, supramolekulyar komplekslarini olish, ularning fizik-kimyoviy xossalari hamda spetsifik gemostatik faolligini o'rganish hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotlar jarayonida ekstraksiya qilish, cho'ktirish, qayta kristallash, tozalash, fizik-kimyoviy, <sup>1</sup>H YaMR-, <sup>13</sup>C YaMR-spektroskopiya, xromato-mass-spektrometriya, rentgen tuzilish tahlili (RTT), xromatografik (yupqa qatlamli (YuQX) va kolonkali (KX) xromatografiya) va biologik usullar qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

*Lagochilus inebrians Bunge* o'simlikdan ajratib olingan lagoxilin diterpenoidi asosida ilk bor 18-norgidroksimetilen-3-O-3';3-O-18`dilagoxirzin sintez qilingan va monokristalini olish usuli ishlab chiqilgan hamda RTT, PMR va mass-spektrometriya usullari asosida uning kimyoviy tuzilishi isbotlangan;

18-Norgidroksimetilen-3-O-3'; 3-O-18'-dilagoxirzin sintezi mexanizmi aniqlangan va ushbu jarayonida bir molekula suv bilan birga bir molekula metil spirti ajralib chiqishi hamda natijada 3-O-3'; 3-O-18' bog'ining hosil bo'lishi asoslab berilgan, uning kristall tuzilishi rombik kristall tuzilishga ega ekanligi isbotlangan;

Lagoxirzin, lagoxirzidin, 15,16,18-triatsetillagoxilin, lagoxilintetraformiat, di-(O,O'-tsiklogeksiliden)lagoxilinlarning monokristallarini olish usullari ishlab chiqilgan va kimyoviy tuzilishlari RTT usuli asosida tasdiqlanib, kristall panjaralari rombik tuzilishga ega ekanligi isbotlangan.

Lagoxirzinning GK hamda GKning monoammoniyli tuzlari bilan har xil molyar nisbatlardagi supramolekulyar kompleksleri olinigan va ularning kimyoviy tuzilishlari IQ, UB spektroskopiya usullari asosida UB spektrlarida maksimum nur yutishi 3-5nm katta to'liq uzunligiga siljishi bilan asoslab berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

lagoxilinning 18-norgidroksimetilen-3-O-3';3-O-18'-dilagoxirzin, lagoxirzidin, 15,16,18-triatsetillagoxilin, lagoxilintetraformiat, di-(O,O'-siklogeksiliden)lagoxilinlar hosilalari sintezi usullari va ularning kristallarini olish usullari ishlab chiqilgan.

Olingan kristallar RTT usuli asosida tahlil qilinib, kristall panjaralari tuzilishlari aniqlanib, olingan natijalar Kembrij kristallografik bazasiga maxsus raqamlar (Ref Code) bilan amaliyotda foydalanish uchun joylashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchiligi** lagoxilinning yangi hosilalari sintez qilinganligi va zamonaviy IQ-, <sup>1</sup>H YaMR-, <sup>13</sup>C YaMR-spektroskopiya, xromatogramma-spektrometriya, rentgen tuzilish tahlili (RTT), xromatografik (yupqa qatlamli (YuQX) va kolonkali (KX) xromatografiya), biologik va boshqa tadqiqot usullaridan olingan natijalar mutaxassislarning ekspert baholari, tadqiqot natijalarining xalqaro ilmiy konferensiyalardagi muhokamasi va retsenziyalangan ilmiy jurnallarda maqolalar sifatida chop etilganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, lagoxilinning bir qator hosilalari, jumladan, lagoxirzidin, 15,16,18-triatsetillagoxilin, lagoxilintetraformiat, di-(O,O'-siklogeksiliden)lagoxilin va 18-norgidroksimetilen-3-O-3';3-O-18'-dilagoxirzinlar sintez qilingan, fizik-kimyoviy xususiyatlari va monokristalini olish sharoiti o'rganilgan, RTT usuli asosida kimyoviy tuzilishi isbotlangan, 18-norgidroksimetilen-3-O-3';3-O-18'-dilagoxirzin sintezi jarayonida suv molekulasi bilan birga bir molekula metil spirti ajralib chiqib ketishi natijasida 3-O-3';3-O-18' bog'i hosil bo'lishi ilmiy asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati lagoxilin diterpenoidi asosida lagoxirzin, lagoxirzidin, 15,16,18-triatsetillagoxilin, lagoxilintetraformiat, di-(O,O'-siklogeksiliden)lagoxilin va 18-norgidroksimetilen-3-O-3';3-O-18'-dilagoxirzinlarning monokristallari RTT usuli asosida o'rganilib, ularning kimyoviy tuzilishlari to'la isbotlanganligi va ular Kembrij kristallografik bazasiga XATPEO, MUFVOY, EKIQU, EKIQUY, MUFVUE, LOFHIX maxsus

kodlari bilan deponent raqamlar orqali kiritilganligi va undan kelajakda barcha kimyogar olimlar foydalanish imkoniyatlarini ochilishi hamda bu esa o'z navbatida yangi gemostatik dori vositalarni yaratishda ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Lagoxilinning bir qancha hosilalarining monokristallarini olish va ularning kimyoviy tuzilishlarini tahlil qilish hamda biologik faollini o'rganish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Lagoxilin diterpenoidining hosilalari lagoxirzin, lagoxirzidin, 15,16,18-triatsetillagoxilin, monokristallari olinib, tahlil qilingan va Kembrij ning kristallografik bazasiga XATPEO, MUFVOY, EKIQUU maxsus kodlari bilan kiritilgan (<https://www.ccdc.cam.ac.uk>). Natijada ushbu qator birikmalarining monokristallarini olish usullaridan keng foydalanish imkoniyati yuzaga kelgan.

Lagoxilin diterpenoidining tetraformiati, di-(O,O'-siklogeksiliden)lagoxilin va 18-norgidroksimetilen-3-O-3';3-O-18'-dilagoxirzinlarning monokristallari olingan va Kembrij ning kristallografik bazasiga EKIQIY, MUFVUE, LOFHIX maxsus kodlari bilan kiritilgan (<https://www.ccdc.cam.ac.uk>). Natijada ushbu kristallarni olish usullari hamda ularning kimyoviy tuzilishlaridan kimyogar olimlar, ilmiy izlanuvchilar va talabalar keng foydalanishlari uchun imkoniyatlari yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 12 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 26 ta ilmiy ish nashr etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan, 1 monografiya, 8 ta ilmiy maqola, shundan, 2 tasi respublika, 6 tasi xorijiy Scopus va Web of Sciences bazasiga kirgan jurnallarda nashr etilgan. 5 ta xalqaro va 12 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlar to'plamlarida tezislari nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 112 bet.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'yekti va predmetlari ifodalangan, uning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchiligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, ularning amaliyotga joriy qilish istiqboli borasida xulosalar keltirilgan hamda chop ettirilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning «Lagochilus turkumi o'simliklarining kimyoviy tuzilishi, di va triterpenoidlarining biologik xususiyatlari» deb nomlangan

birinchi bobida *Lagochilus* turkum o‘stimligining kimyoviy tarkibi, lagoxilin hosilalarining biologik faolligi, gemostaz tizimi, gemostatik dori vositalari, molekulyar va kristall tuzilishlari, xossalari, biologik faolligi va ularning qo‘llanish sohalari hamda fizik-kimyoviy xossalari bo‘yicha adabiyot ma‘lumotlari batafsil tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning «*Lagochilus inebrians* o‘stimligidan lagoxilinni ajratib olish va tozalash, uning hosilalarini sintez qilish, supramolekulyar komplekslarini olish sharoitlari» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot ob‘yektlari va usullariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda *Lagochilus Inebrians* o‘stimligidan lagoxilinni ajratib olish va tozalash, qayta kristallash 18-norgidroksimetilen-3-O-3';3-O-18'-dilagoxirzin, 15,16,18-triatsetillagoxilin, lagoxilin tetraformiati, lagoxirzidin, di-(O,O'-siklogeksiliden)lagoxilin va lagoxirzinni sintez qilish usullari ko‘rsatilgan, RTT, IQ-,  $^1\text{H}$ ,  $^{13}\text{C}$  YaMR-spektroskopiyasi va mass-spektrometriya tahlili usullari, moddalarning tuzilishini aniqlashga asoslangan zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullari keltirilgan. *Lagochilus* turkumi o‘simliklaridagi ayrim diterpenoidlarning koagulyatsiya tizimiga ta‘sirini aniqlash usullari sharhlangan.

Dissertatsiyaning «*Lagochilus inebrians* o‘stimligidan lagoxilinni ajratib olish, tozalash, uning hosilalarini sintez qilish, supramolekulyar komplekslari olish va ularning kimyoviy tuzilishi hamda biologik faolligi» deb nomlangan uchinchi bobida *Lagochilus Inebrians* o‘stimligidan ajratib olingan va sintez qilingan birikmalarini tuzilishi va xossalarini RTT usuli yordamida molekulyar va kristall tuzilishlari, IQ-,  $^1\text{H}$  YaMR spektroskopiya, mass-spektrometriya va biologik faolligini aniqlash usularining tahlili muhokama qilingan. Biz o‘simlikdan lagoxilinni dixloretan yordamida ajratib olish usulini asos sifatida tanladik, va o‘simlikni ishqor bilan birlamchi ishlov berish va ekstraksiyalash jarayoni qisman takomillashtirildi.


Olingan lagoxirzin atsetonda qayta kristallab monokristall olindi va kimyoviy tuzilishi tahlil qilish uchun monokristalidan foydalanildi (1-rasm).



1-rasm. Lagoxirzin sintezi

**Lagoxirzinning kristall tuzilishidagi molekulararo H-bog‘i**

H-bog‘	Simmetriya	O-H, (Å)	O...H, (Å)	O...O, (Å)	Burchak, (°)
O1-H...O2	1-x+y, 1-x, -2/3+z	0.75(6)	2.04(7)	2.739(7)	1.55(9)
O2-H-O1	1-x+y, 1-x, 1/3=z	0.83(6)	2.02(6)	2.824(7)	1.63(5)




**2-rasm. Lagoxirzinning kristall tuzilishi. Tekislikka proektsiya. Punktir chiziqlar - H-bog‘lanishlar. Faqat vodorod bog‘lanishlarida ishtirok etadigan vodorod atomlari ko‘rsatilgan**

Lagoxirzin molekulasining tuzilishida 7 ta asimmetrik atomlar C3, C4, C5, C8, C9, C10, C13 mavjud bo‘lib, olingan monokristallarning sifati absolyut konfiguratsiyani aniqlash uchun yetarli miqdorda aks ettirishga imkon bermadi. Shuning uchun biz faqat xiral markazlarning konfiguratsiyasini taklif qilishimiz mumkin: C3S, C4R, C5S, C8R, C9R, C10S, C13S, lagoxilin va uning hosilalari molekularida shunga o‘xshash xiral markazlarning konfiguratsiyasi bilan muvofiqlashtirilgan. Lagoxirzin molekulasining kristall tuzilishda har bir gidroksil guruhi ham donor, ham proton akseptor rolini bajaradi (1-jadval), shuning uchun lagoxirzinning bitta molekulasini qolgan to‘rtta molekula bilan 3-tartibli o‘q atrofida vodorod bog‘lanib, yo‘nalishda cheksiz zanjirlar hosil qiladi (2-rasm). Kuzatilgan kristall strukturasi ancha bo‘sh (qadoqlash koeffitsienti 65,5%). Ishimizning keyingi bosqichida sirka angidridi ishtirokida lagoxirzindan lagoxirzidin sintezi amalga oshirildi.

### **Lagoxirzidin sintezi**


Lagoxirzindan lagoxirzidin olish jarayoni degidrogenlash asosida olib borildi. Buning uchun lagoxilinning toluoldagi eritmasiga faollashtirilgan Reney nikel katalizatoridan qo‘shildi va reaksiyon aralashma 3 soat davomida qaynatildi. Reaksiyaning borishi YuQX usuli yordamida nazorat qilindi. Reaksiya oxirida katalizator filtrlandi. Olingan eritma 5% li natriy gidroksid eritmasi bilan ekstraksiya qilindi va 20% li sulfat kislotasi eritmasi qo‘shildi. Kislotasi qo‘shilgan eritma dietilefir bilan ekstraksiya qilindi. Efirli eritma 0,5% li natriy gidrokarbonat eritmasi bilan, keyin distillangan suv bilan yuvildi. Efir haydalgandan so‘ng, umumiy qoldiq va sorbent 1:50 nisbatda LC 100/160

markali silikagelli kolonkada ajratildi. Kolonka benzol bilan elyuatsiya qilindi. Benzol-dietilefir 100:1 aralashmasi bilan elyuatsiya qilingandan so‘ng,  $R_f$  0,72 bo‘lgan birikma keyingi fraksiyalardan ajratilib olindi va metanolda qayta kristallandi (3-rasm).



**3-rasm. Lagoxirzidin sintezi**

Suyuqlanish harorati 256-258 °C, unumi 43-45%ni tashkil qildi. Metanolda qayta kristallangan lagoxirzidinning monokristallari RTT usuli asosida tahlil qilindi (4-rasm). Molekulyar konformatsiya va atom raqamlanishi 6-rasmda ko‘rsatilgan. Taxminiy tarzda, A, B, C halqalari lagoxilin molekulasining asosiy skeleti bir qismi uchun D - besh a‘zoli, E halqa esa olti a‘zoli trans-bo‘g‘inli geterohalqa, C(3) va C(4) atomlari orqali A halqaga nisbatan deb faraz qilamiz. Barcha halqalarning konformatsiyasini aniqroq baholash uchun RING dasturidan foydalanib, berilgan konformatsiyaning idealdan chetlanish darajasini tavsiflovchi asimmetriya parametrlari hisoblab chiqildi. Lagoxilinning molekulasida bo‘lgani kabi, ko‘rib chiqilayotgan birikmaning olti a‘zoli siklogeksan halqalari A va B bir oz buzilgan kreslo konformatsiyasiga ega ( $\Delta C_s$  va  $\Delta C_2$  kattaligi kichik bo‘lgan). Asimmetriya parametrlarini tahlil qilish besh a‘zoli C halqalarining konformatsiyasini aniqlashga imkon berdi: agar 1 birikma uchun yarim kreslo konformatsiyasi yaqinroq bo‘lsa (kam qiymatlar bilan tavsiflanadi ( $\Delta C_2(O1)=1.0^\circ$ ), ( $\Delta C_s(C12)=4.6$ ) va C9, C11, C13, O1 atomlari tekisliklari o‘rtacha kvadratining maksimal 0.02Å va C12 atomi bu tekislikdan 0.45Å ga (chetlanish kuzatildi) og‘adi.




**4-rasm. Lagoxirzidinning kristall panjarasi ko‘rinishi va molekulasini joylashishi**

Besh a‘zoli D geterohalqa konvert konformatsiyasiga ega  $\Delta C_2(C13)=5.9$ , C14, C15, C16, O4 atomlari tekislikda maksimal o‘rtacha kvadratik og‘ish 0.02Å yotadi, C13 atomining og‘ishi 0.04Å. E halqa geteroatomlarning mavjudligi sababli biroz buzilgan kreslo ko‘rinishiga ega bo‘ladi. A/B A/E halqalari trans holatda. Birikmada C4 va C10 atomlaridagi metil guruhlar aksial, C8 atomidagi metil guruhi esa ekvatorial holatida bo‘ladi. Lagoxirzidinning kristall tuzilishi molekularning Van-der-Vaals o‘zaro ta’siriga bog‘liq bo‘lishi aniqlandi.


## Lagoxirzinning degidratlanish mahsuloti - 18-norgidroksimetilen-3-O-3';3-O-18'-dilagoxirzin sintezi

Lagoxilinning toluodagi eritmasiga Reney nikel katalizatori qo'shildi va aralashma qaynatildi. Olingan eritma 5% li natriy gidroksid eritmasi bilan ekstraksiya qilindi va 20% li sulfat kislotasi eritmasi qo'shildi. Kislotasi qo'shilgan eritma dietilefir bilan ekstraksiya qilindi. Efir haydalgandan so'ng, qoldiq va sorbent 100:1 nisbatda silikagelli ustunda benzol-dietilefir bilan xromotografiya qilindi. Keyingi fraksiyalarda  $R_f=0,72$  bo'lgan 18-norgidroksimetilen-3-O-3';3-O-18'-dilagoxirzin ajratildi, u metanolda qayta kristallandi (6-rasm).



**5-rasm. 18-norgidroksimetilen-3-O-3';3-O-18'-dilagoxirzinning sintezi**

Hosil bo'lgan mahsulot oldin PMR spektroskopiya va Rentgen tuzilishi tahlili orqali o'rganildi. Ushbu birikmaning molekulasida C3 va C4 uglerod atomlari ishtirokida lagoxirzin molekulasining ikkita fragmentining asimmetrik dimer birikmasiga ega ekanligi aniqlandi. Lagoxilinning degidratlanishidagi qo'shimcha ajralgan mahsulotlarni chuqur o'rganish yana bir kichik degidratlanish mahsulotning hosil bo'lishiga olib keldi. Suyuqlanish harorati 256-258 °C. Bu birikma suyultirilgan kislotalar ta'sirida o'zgarmaydi, lekin ishqor ta'sirida gidrolizlanadi. Kislotali muhitda gidrolizlangan mahsulot boshlangich moddalarni hosil qila oladi. Demak, birikmaning tarkibida lakton halqasi bor, molekulyar og'irligi lagoxilindan va lagoxirzindan yuqori ekanligini va bir qator fizik-kimyoviy konstantalarida sezilarli darajada farq borligini hisobga olib, ushbu birikmaning tuzilishi PMR spektroskopiya va RTT usullari asosida tahlil qilindi.




**6-rasm. 18-norgidroksimetilen-3-O-3';3-O-18'-dilagoxirzinning kristall tuzilishi va molekulasida joylashishi**

PMR spektrida ikkita lakton halqa signallari to'plami 18-norgidroksimetilen-3-O-3';3-O-18'-dilagoxirzinning dimer tabiyatini ko'rsatadi, bitta H3 signali va bitta C-18 metilen guruhining mavjudligi esa dimer birikma C3 va C4 uglerod atomlari ishtirokida sodir bo'lganligini ko'rsatadi. moddaning

yakuniy strukturasi Rentgen tuzilishi tahlili bilan isbotlangan. Rentgen nurlari difraksiyasi tahlili 18-norgidroksimetilen-3-O-3';3-O-18'-dilagoxirzinda molekulaning ikkita fragmentining asimmetrik dimer artikulyatsiyasiga ega ekanligini tasdiqladi. Molekulaning konformatsiyasi va atomlarning raqamlanishi 6-rasmda ko'rsatilgan. Biz shartli ravishda dimerning birinchi qismi A, B, C, D ikkinchi A', B', C', D' qismi E halqa esa bog'lovchi deb hisoblaymiz. 1 da bo'lgani kabi, olti a'zoli siklogeksan halqalari A,B, A',B' biroz buzilgan kreslo konformatsiyasiga ega, besh a'zoli halqalar C,D, C',D' - yarim kreslo. E halqa biroz buzilgan kreslo konformatsiyasiga ega.

### 15,16,18-triatsetillagoxilinni sintez qilish va kimyoviy tuzilishi aniqlash


Lagoxilinga sirka anhidridining atsetonli eritmasini qo'shib kuchsiz kislotali muhitda aralastirib turilgan holda qizdirildi. Hosil bo'lgan aralashmadan atseton haydab olindi va qoldiq sovuq suv bilan yuvildi. Kolonkali xromatografiya usulida (Silikagel 100/160) efir:benzol (1:2) nisbatda elyuatsiya qilindi. Kolonkadan sistema (benzol- atseton 5:1)  $R_f$  0,36 bo'lgan modda ajratib olindi. Olingan modda efir:benzol (3:7) sistemada qayta kristallanganda oq cho'kma kristalga tushdi. Kristallar suv bilan yuvildi va quritildi. Unum 8%. Kristall moddaning kimyoviy tuzilishi va atsetillanmagan gidroksil guruhini aniqlash uchun RTT amalga oshirildi (7-rasm).



### 7-rasm. 15.16.18-triatsetillagoxilinning sintezi

Triatsetillagoxilin monokristallarining kristallografik parametrlari to'rt doirali Syntex-P21 difraktometrda 15 ta akslantirish orqali aniqlandi va isbotlandi.

Kristall strukturada triatsetillagoxilin molekulari uzunligi 2,76Å bo'lgan O(2)-H(I)...O(6)(II) vodorod bog'i orqali z o'qi bo'ylab o'tuvchi spiralsimon zanjirlarga birlashgan. Shunday qilib, kolonkada ajratib olingan moddaning kimyoviy tuzilishi 15.16.18-triatsetillagoxilin ekanligi aniqlandi (8-rasm).




**8-rasm. Lagoxilinning 15.16.18-triatsetil hosilasining kristall panjarasi ko‘rinishi va molekulasini joylashishi**

Ishimizning keyingi bosqichida lagoxilinning atsetil hosilalari bilan bir qatorda uning formiati sintezi amalga oshirildi.

#### **Lagoxilinning tetraformiati sintezi va kimyoviy tuzilishini aniqlash**

Lagoxilinga chumoli kislotasi qo‘shildi va 15 soatga xona haroratida qoldirildi. So‘ngra ustiga distillangan suv qo‘shildi va uch marta etil efiri bilan ekstraksiya qilindi. Efir ekstraktlari birlashtirilib, distillangan suv bilan yuvildi va suvsiz natriy sulfat bilan quritildi. Erituvchi haydab olingandan keyin qoldiq efir bilan qayta kristallandi. Natijada oq kristall modda olindi (9-rasm). Olingan birikmaning suyuqlanish harorati  $T_{\text{suyuq}}$  124-125<sup>0</sup>C va reaksiya unumi 85%.




**9-rasm. Lagoxilin tetraformiat sintezi**

IQ-spektr ( $\text{sm}^{-1}$ ): 2980-2910, 1715, 1460, 1375, 1185. PMR spektr ( $\text{CHCl}_3$ ): 0.79 (s, 3H-20); 0.80 (d,  $J=6\text{Gts}$ , 3H-17), 0.89 (s, 3H-19); 3.71 (d,  $J=12\text{Gts}$ , H-18); 3.91 (d,  $J=12\text{Gts}$ , H-18); 4.09 (s, 2H-16); 4.29 (t,  $J=6\text{Gts}$ , 2H-15); 4.85 (m, H-3); 7.94; 7.97; 8.60; 8.03; (s, 4C=O). Mass-spektr(m/z): 468( $\text{M}^+$ ) 439, 421, 385, 375, 254, 253, 242, 241, 228, 227, 213, 201, 195, 167, 149, 136, 135, 133, 123, 121, 119, 109, 107, 106.

Integratsiyalangan intensivliklar xona haroratida gravitatsion kristalldan monoxromatlangan  $\text{CuK}_\alpha$ -nurlanishidan foydalangan holda  $\theta/2\theta$ -skanerlash usuli bilan o‘lchandi. Lorens omillari, qutblanish va kuchsiz aks ettirishini  $I < 2\sigma$  olib tashlashni hisobga olgandan so‘ng, ishchi massiv 2547 iborat bo‘ldi. Strukturalar SHELXS-86 dasturiy ta‘minot to‘plami yordamida to‘g‘ridan-to‘g‘ri usulda takomillashtirildi va SHELX-76 eng kichik kvadratlarning to‘liq matritsali usuli bilan yo‘q qilindi. Turli Fure sintezidan foydalanib, molekulaning barcha vodorod atomlari lokalizatsiya qilindi. Pozitsion va anizotropik termal parametrlarni takomillashtirishning yakuniy bosqichidan keyin farqlanish omillari  $R_f=0,087$  ni tashkil etdi. Lagoxilin tetraformiatning elementar yacheyka parametrlari:

$a=17.221(2)\text{\AA}$ ,  $b=17.221(2)\text{\AA}$ ,  $c=16.645(3)\text{\AA}$ ,  $V=4936/3(12)\text{\AA}^3$ ,  $Z=8$ ,  $\rho=1.26\text{ g/sm}^3$ , singoniya-tetragonalli.

Lagoxilin tetraformatning kristall tuzilishi molekulalarning Van-der-Vaals o‘zaro ta‘siriga bog‘liq (10-rasm).




**10-rasm. Lagoxilin tetraformatning kristall panjarasi ko‘rinishi va molekulasi joylashishi**

Adabiyot manba‘larida lagoxilinning bir qator aromatik aldegidlar bilan hosilalari sintezi amalga oshirilgan. Lekin to‘yingan halqali birikmalar bilan hosilalari sintez qilinmagan. Shuning uchun bizga siklogeksanon bilan hosilasini olib o‘rganish qiziqarli bo‘ldi.

### **Di(O,O'-siklogeksiliden) lagoxilinni sintez qilish va kimyoviy tuzilishini aniqlash**

Buning uchun lagoxilin kristallari siklogeksanonida 5 soat davomida teskari sovutgich bilan jihozlangan tizimda kislotali muhitda qizdirildi va aralashtirildi. Aralashma sovutilib, suv qo‘shildi va di-(O,O'-siklogeksiliden) lagoxilin cho‘ktirildi. Mahsulot benzol:atseton sistemasida qayta kristallash yo‘li bilan olindi (11-rasm).




**11-rasm. Di-(O,O'-siklogeksiliden)-lagoxilin sintezi**

Brutto formula:  $C_{32}H_{52}O_5$ , T.suyuq. 156-158  $^{\circ}C$ . Unumi: 39%. IQ-spektr ( $sm^{-1}$ ): 2810-2990, 1420, 1340, 1250, 1140. PMR spektr: 0,76 (d, 3H-17), 0,85 (s, 3H-20), 0,97 (s, 3H-19), 3,38-3,90 (m, H-3, 2H-18, 2H-16). Mass-spektr (m/z): 516(M), 473, 418, 388, 386, 303, 278, 265, 252, 173, 167, 154, 149, 147, 137, 135, 133, 123.

Rentgen tuzilish tahlil usuli bilan o‘rganish di-(O,O'-siklogeksiliden) lagoxilinning tuzilishini aniqlashga imkon berdi, chunki PMR spektrlari ma‘lumotlari, shu jumladan E va D halqalarining konfiguratsiyasini, shuningdek, C21 va C8 da metil guruhlarini aniqlash uchun Overxauzer yadro effekti bo‘yicha tajriba natijalari bir xil talqin qilish uchun yetarli emas edi. Ushbu birikma lagoxilinning siklogeksanon bilan kimyoviy reaksiyasidan so‘ng xromatografik

usulda ajratib olingan. Besh a'zoli D geterohalqa  $\Delta C_2(C13) = 5.9$  konvert konformatsiyasiga ega bo'lib, C14, C15, C16, O4 atomlari  $0.02\text{\AA}$  maksimal o'rtacha kvadratik og'ish bilan tekislikda yotadi va C13 atomi  $0.04\text{\AA}$  og'ishga ega. Yetti a'zoli D geterohalqa  $\Delta C_2(C21) = 1.2^\circ$  yarim kreslo konformatsiyasiga ega, halqa E geteroatomlar mavjudligi tufayli biroz buzilgan kreslo. Almashgan siklogeksan halqalarining F va G konformatsiyasi ideal kresloga yaqin ( $\Delta C_s$  va  $\Delta C_2$  ning minimal qiymatlari). A/B A/E halqalari trans holatda. Birikmada C4 va C10 atomlaridagi metil guruhlari aksial holatda, C8 atomidagi metil guruhi esa ekvatorial holatda joylashgan. Di-(O,O'-siklogeksiliden) lagoxilinning kristall tuzilishi molekulalarning Van-der-Vaals o'zaro ta'siriga bog'liqligi ko'rsatilgan (12-rasm).



### 13-rasm. Di-(O,O'-siklogeksiliden) lagoxilinning kristall panjarasi ko'rinishi va molekulasini joylashishi

Lagoxilin va hosilalarining gemostatik ta'sirining samaradorligini oshirish uchun ularning suvda eriydigan polimerlar bilan molekulyar komplekslari olinadi.

Lagoxirzin asosida GK va GKMAT bilan 1:1, 1:2 va 1:4 turli molyar nisbatlarda molekulyar komplekslar olindi. Komplekslarni olish uchun tozalangan GK va GKMAT (tozalik darajasi YSSX bo'yicha 94-96%) ishlatilgan. GK:LXZ (1:1), (2:1) va (4:1) molekulyar komplekslarining IQ-spektrida quyidagi xarakterli tebranish chastotalarini kuzatish mumkin:  $3000-3600\text{ cm}^{-1}$  da keng yelka ko'rinishidagi intensiv tebranishlar chastotasi ikkala kompleks hosil qiluvchi birikmalarda mavjud bo'lgan OH-guruhlarning valent tebranishlariga mos keladi;


$1733\text{ cm}^{-1}$  da gliksirizin kislotaning karboksil guruhlarining karbonilning valent tebranishini va  $1648\text{ cm}^{-1}$  dagi chastota qo'sh bog'ning yonida joylashgan C=O ning valent tebranishiga to'g'ri keladi. Adabiyot ma'lumotlariga ko'ra, kompleks hosil bo'lish jarayonida karbonil guruhlarining valent tebranish chastotasi boshlang'ich moddaga nisbatan kuchli maydonda namoyon bo'ladi.

GK:LXZ (1:1), (2:1) va (4:1) molekulyar komplekslarining IQ-spektrida quyidagi xarakterli tebranish chastotalari kuzatiladi: lagoxirzinning lakton halqasidagi karbonil guruhining  $1740\text{ cm}^{-1}$  dagi valent tebranishlari; GK karboksil guruhlarining karbonillarning  $1734\text{ cm}^{-1}$  dagi valent tebranishlari; gliksirizin kislotasi molekulasidagi qo'shbog' yonida joylashgan karbonilning valent tebranishi  $1650\text{ cm}^{-1}$  ga to'g'ri keladi. Karboksil guruhlarining tebranish chastotasini  $1718\text{ cm}^{-1}$  dan (gliksirizin kislotasi molekulasining IQ-spektrida)  $1734\text{ cm}^{-1}$  gacha o'zgarishi

GK:LXZ komplekslaridagi molekulararo vodород bog‘lari lagoxirzin glitsirrizin kislotasi molekulasining karbonil va gidroksil guruhlari o‘rtasida hosil bo‘lishini ko‘rsatadi.

1-sxema

Lagoxirzinning GK va GKMAT bilan molekulyar komplekslarini olishning umumiy sxemasi



Bundan tashqari, ushbu komplekslarning IQ-spektrida lagoxirzinning lakton halqasidagi karbonil guruhining tebranish chastotasi  $1783 \text{ cm}^{-1}$  dan  $1740 \text{ cm}^{-1}$  ga o‘zgaradi. Bu GK:LXZ kompleksida molekulararo vodород bog‘ hosil bo‘lishida lagoxirzinning gidroksil guruhlari bilan bir qatorda lagoxirzinning lakton halqasidagi C=O guruhi ham ishtirok etishini ko‘rsatadi.  $3000\text{-}3600 \text{ cm}^{-1}$  sohada molekulararo vodород bog‘larida qatnashgan va erkin -OH guruhlari valent tebranishlari kuzatiladi.

Lagoxirzinning GK va GKMAT bilan olingan supramolekulyar komplekslari spetsifik gemostatik faolligini o‘rganish bo‘lib, 3-jadvalda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, lagoden nisbatan eng yuqori gemostatik faollik namoyon qilgan  $98 \pm 10$  sek bo‘lib uni 100% deb qabul qilindi. Nazoratda esa  $265 \pm 15,6$  sek 56% ga teng. Lagoxilin, lagoxirzin, lagoxirzidin, 18-norgidroksimetilen-3-O-3`-3-O-18`-dilagoxirzin va di(O,O'-siklogeksiliden) lagoxilinlar nisbatan past gemostatik faollik namoyon qilgan.

**Olingan birikmalarning spetsifik gemostatik faolligi**

№	Moddalar nomlari	Gemostatik faolligi, sek., %
1	Lagoxilin	130±12,6 67
2	Lagoxirzin	129±13,0 60
3	Lagoxirzidin	163,7±14,8 33
4	18-norgidroksimetilen-3-O-3'-3-O-18'-dilagoxirzin	163,7±13,5 33
5	Di(O,O'-diklogeksiliden) lagoxilin	165±14,7 32
6	15,16,18 uchatsetillagoxilin	117±10,6 81
7	Tetraatsetillagoxilin	130±13,0 67
8	Tetraformiat lagoxilin	129±13,0 60
9	GK:LXZ 1:1	115±11,4 83
10	GK:LXZ 2:1	117±10,8 82
11	GK:LXZ 4:1	116±10,5 81
12	GKMAT:LXZ 1:1	114±10,6 84
13	GKMAT:LXZ 2:1	113±10,1 87
14	GKMAT:LXZ 4:1	115±11,0 83
15	Diizopropiliden lagoxilin	266±16,0 0
16	GKMAT:Lagoxilin 2:1	101±10,1 98
17	Lagoden	98±10,0 100
18	Nazorat	265±15,6

Sintez qilib olingan birikmalarning biologik faolliklari kimyoviy tuzilishi orasidagi bog'liqlikni o'rganishda lagoxilin va uning hosilalarining biologik faolligi ularning suvda eruvchanligiga va molekula tarkibiga gidrofob guruhning kiritilishi gemostatik faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi isbotlandi.

Lagoxirzinning GKMAT va GK bilan olingan supramolekulyar komplekslari nisbatan yuqori 81-87% gemostatik faollik namoyon qilganligini kuzatish mumkin. Bunga asosiy sabab sifatida ularning suvda eruvchanligi oshganligi hisobiga biosamarodorlik ham yuqori bo'lgan. Shunday qilib, olingan komplekslarning gemostatik xususiyatlarini qiyosiy o'rganish ular kompleks hosil qiluvchi agentning eruvchanligiga bog'liq ekanligini ko'rish mumkin.

**XULOSALAR**

1. Lagoxilinning triatsetil, tetraformiat, lagoxirzin, lagoxirzidin hosilalari sintez qilinib, fizik-kimyoviy va spektral xususiyatlari aniqlandi hamda ularning monokristallarini olish usullari ishlab chiqilgan.
2. Ilk bor *Lagochilus inebrians* o'simligidan ajratib olingan lagoxilin diterpenoidi asosida 18-norgidroksimetilen-3-O-3';3-O-18'-dilagoxirzin sintez qilinib, fizik-kimyoviy xususiyatlari aniqlangan, RTT usuli asosida rombik tuzilishga ega

ekanligi isbotlangan va Kembrij kristallografik ma'lumotlar bazasiga LOFHIX (CCDC Ref Code: LOFHIX) shifri bilan kiritilgan.

3. Lagoxilin asosida sintez qilingan triatsetil, tetraformiat, lagoxirzin va lagoxirzidinlarning kimyoviy tuzilishlari RTT usulida aniqlanishi natijasida ularning kristall panjaralari tuzilishlari rombik tuzilishga ega ekanligi isbotlangan va Kembrij kristallografik ma'lumotlar bazasiga EKIQU, EKIQIY, XATPEO, MUFVOY (CCDC Ref Code: EKIQU, EKIQIY, XATPEO, MUFVOY,) shifrlari bilan kiritilgan.
4. Birinchi marta lagoxilin asosida uning di-(O,O'-siklogeksiliden)lagoxilin sintez qilinib, fizik-kimyoviy xususiyatlari o'rganilgan RTT usuli asosida uning kristall panjarasi rombik tuzilishga ega ekanligi isbotlangan va Kembrij kristallografik ma'lumotlar bazasiga MUFVUE (CCDC Ref Code: MUFVUE) shifri bilan kiritilgan.
5. Ilk bor lagoxirzinning GK va uning monoammoniyli tuzi bilan 1:1, 1:2 va 1:4 molyar nisbatlardagi supramolekulyar kompleks birikmalari olindi, ularning fizik kimyoviy xususiyatlari aniqlandi, komplekslarda muvofiqlashtiruvchi kuchlar molekulalararo vodorod bog'lari ekanligi IQ spektroskopiya ma'lumotlari asosida ko'rsatib berilgan.
6. Sintez qilib olingan birikmalarning biologik faolliklari kimyoviy tuzilishi orasidagi bog'liqlikni organishda lagoxilin va uning hosilalarining biologik faolligi ularning suvda eruvchanligiga bog'liq ekanligi va molekula tarkibiga gidrofob guruhning kiritilishi gemostatik faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi isbotlangan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
DSc.03/05.06.2020.К/В.91.03 ПРИ ГУЛИСТАНСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**БЕКПОЛАТОВА БАХТЫГУЛ МАДИРЕЙМОВНА**

**СИНТЕЗ БИОЛОГИЧЕСКИ АКТИВНЫХ ПРОИЗВОДНЫХ  
ЛАГОХИЛИНА И ЛАГОХИРЗИНА**

**02.00.10 – Биоорганическая химия**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ  
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ ПО ХИМИИ (PhD)**

**Гулистан – 2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по химическим наукам зарегистрирована за номером В2022.1.PhD/К465 в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан**

Диссертация выполнена в Каракалпакском государственном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.siyes.uz](http://www.siyes.uz)) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Матчанов Алимжон Давлатбоевич**  
доктор химических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Абдулладжанова Нодира Гуломжоновна**  
доктор химических наук, профессор

**Мамадалиева Нилуфар Зокиржоновна**  
доктор химических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Ташкентский химико-технологический институт**

Защита диссертации состоится "\_\_\_" \_\_\_\_\_ 2025 года в \_\_\_ часов на заседании Научного Совета DSc.03/05.06.2020.К/В.91.03 по присуждению ученых степеней при Гулистанском государственном университете. (Адрес: 140100, г. Гулистан, 4-й квартал, университетский кампус. Тел.: (+99867-225-24-90), e-mail: [gdu\\_info@edu.uz](mailto:gdu_info@edu.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Гулистанского государственного университета (зарегистрирован за №\_\_\_). (Адрес: 120100, г. Гулистан, 4-й квартал, университетский кампус. Тел.: (+99867-225-24-90), e-mail: [sies\\_info@edu.uz](mailto:sies_info@edu.uz)).

Автореферат диссертации разослан: «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 г.

(реестр протокола рассылки № «\_\_\_» от \_\_\_\_\_ 2025 г).

**Х.Х.Кушиев**

Председатель научного совета по присуждению  
ученых степеней доктора наук  
д.б.н., профессор

**Т.А.Джураев**

Ученый секретарь научного совета по присуждению  
ученых степеней доктора наук  
к.б.н., доцент.

**Н.Р.Хашимова**

Председатель научного семинара при  
Научном совете д.б.н., ст.н.с.

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD)).**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире особое внимание уделяется использованию продуктов, созданных на основе растительного сырья. В медицине одним из наиболее актуальных направлений является разработка и использование лекарственных средств на основе природных соединений, выделенных из лекарственных растений. Этот подход имеет большое научное и практическое значение. Соответственно, выделение биологически активных веществ на основе изучения химического состава растений, их химическая модификация с учетом свойств, определение химической структуры полученных соединений, изучение их специфической активности и налаживание промышленного производства имеют важное научное и практическое значение.

Именно в этом перспективном направлении многие ведущие исследовательские центры мира концентрируют свои усилия, уделяя особое внимание следующим ключевым аспектам: Выявление источников биологически активных веществ (терпены, терпеноиды, полифенолы, алкалоиды, флавоноиды, кумарины, гликозиды и другие). Поиск и идентификация растений, богатых ценными соединениями. Выделение и модификация необходимых соединений. Разработка эффективных методов экстракции и очистки целевых веществ, а также их химическая модификация для улучшения фармакологических свойств. Анализ структуры современными методами передовых физико-химических и биологических методов для детального изучения структуры выделенных и модифицированных соединений и оценки их специфической биологической активности. Логичным следствием этих интенсивных исследований является ожидание создания эффективных, безопасных и инновационных лекарственных препаратов, которые смогут внести значительный вклад в современную медицину и улучшить качество жизни пациентов.

Проведены исследования по синтезу соединений и некоторых их комплексов на основе дитерпеноида лагохилина, выделенного из произрастающего в горных районах нашей республики растения *Lagochilus inebrians Bunge*, подтвердившие их низкую токсичность и эффективное специфическое воздействие на процесс капиллярного (паренхиматозного) кровотечения в организме человека. В реализации этих исследований в 4-м направлении Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан определены важные задачи по "стимулированию научно-исследовательской и инновационной деятельности, созданию эффективных механизмов внедрения научных и инновационных достижений в практику"<sup>1</sup>.

Научные исследования, направленные на синтез новых производных лагохилина, перевод их в водорастворимую форму, изучение их химической структуры, фармако-токсикологических свойств и разработку экономически

---

<sup>1</sup> Указ Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № УП-4947 "О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан".

эффективных технологий получения высокоэффективных кровоостанавливающих, противовоспалительных и противоаллергических препаратов, а также создание предпосылок для насыщения фармацевтического рынка новыми эффективными лекарственными средствами, имеют важное научно-практическое значение.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указе Президента Республики Узбекистан УП-5707 от 10 апреля 2019 года "О дальнейших мерах по ускоренному развитию фармацевтической отрасли в республике в 2019-2021 годах," Постановлениях Президента Республики Узбекистан ПП-4805 от 12 августа 2020 года "О мерах по повышению качества непрерывного образования и результативности науки по направлениям "химия" и "биология" и ПП-4884 от 6 ноября 2020 года "О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования и воспитания," а также в Указе Президента Республики Узбекистан УП-4947 от 7 февраля 2017 года "О Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах" и других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики VI. "Медицина и фармакология" и VII "Химия, химические технологии и нанотехнологии."

#### **Степень изученности проблемы.**

Растение *Lagochilus*, широко используемое в народной медицине и содержащее в своем составе биологически активные дитерпеноиды, алкалоиды, флавоноиды, известно на территории Центральной Азии с древних времен, а водные отвары, настои, спиртовые экстракты растения широко используются в лечении различных кровотечений, простудных, желудочно-кишечных заболеваний. Эти исследования проводились такими учеными, как И.Е. Акопов, П.Ф. Влад, М.И. Икрамов, С.А. Япарова, Д. Попа, Г.В. Лазуревский, М.М. Абрамов, О.С. Чижов, О.С. Содиков, М. Хатамов, Х.А. Асланов, И.И. Ибрагимов, Т.Р. Абдурахманов, С.А. Ауелбеков, У.Н. Зайнутдинов, Д.Н. Далимов, З.И. Мавлянкулова, М.П. Пулатова, А.Д. Матчанов, С.А. Маулянов.

М.И.Икрамов и М.И.Чиж изучали изменение динамики образования эфирных масел в зависимости от вегетационного периода растения *L. inebrians*. Р.Л.Хазанович установил, что *L. inebrians* содержит 0,217% эфирного масла в период цветения и образования семян. И.Ф.Проскураина и Л.М.Уткин выделили алкалоид стахидрин из растения *L. inebrians*. Профессором Национального университета Узбекистана У.Н. Зайнутдиновым из растений *Lagochilus* выделено более 30 природных соединений. Профессорами Д.Н. Далимовым и А.Д. Матчановым были получены водорастворимые супрамолекулярные комплексные соединения

глицирризиновой кислоты и ее солей с лагохилином и установлено, что их мицеллярная структура, стабильность и термодинамические свойства в водных растворах зависят от соотношения комплексообразующих компонентов и их химического строения. Однако рентгеноструктурный анализ относительно редко применялся для изучения химических структур исходных и полученных соединений, несмотря на необходимость учета их специфики.

